



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IQTIDORINI ANIQLASH VA BAHOLASHDA PIRLS XALQARO DASTURINING TOPSHIRIQ TURLARI VA MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Norqobilova R.D.

Termiz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: PIRLS, badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish, ko‘chirish, bayon qilish, induksiya, deduksiya, isbotlash.

Ключевые слова: PIRLS, приобретение опыта, получение и использование информации, копирование, построение, индукция, дедукция, доказательство.

Key words: PIRLS, gaining experience, obtaining and using information, copying, building, induction, deduction, proof.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS – bu turli ta‘lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish sifati va matnni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir.

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta‘lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarining o‘qish sifati va o‘qilgan matnni tushunish darajasi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e‘tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchi yilida o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta‘limda bilimni egallash qobiliyatini



shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.
2. Xulosalarni shakllantirish.
3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.
4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Badiiy tajriba orttirish. Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o'quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

Axborot olish va undan foydalanish. Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishonitirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, "O'qish savodxonligi" atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki "savodli o'qish"ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bildira olishi zarur. O'quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va



jurnallardagi maqolalar, yo'riqnomalar, reklama e'lonlari, geografik kartalar va b. Ularda axborot turli ko'rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va h.k.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bildira olishi, mustaqil va ijodiy fikrlashiga doir o'quv va mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish orqali ularning PIRLS baholash tadqiqotiga tayyorgarligi va ishtirokini ta'minlash mumkin. Umumta'lim muassasalarida xalqaro tadqiqotlar amaliyotiga asoslangan holda boshlang'ich ta'lim sifatini baholashga erishishda o'qituvchi o'quv jarayoniga kompleks tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga doir topshiriqlarni ishlab chiqishi va o'quv jarayonida qo'llashi muhim hisoblanadi. Bunda o'quv predmetining o'ziga xos jihatini, mashg'ulot o'tiladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e'tiborga olish zarur. Bu o'rinda o'qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Har bir o'qituvchi dars jarayonini loyihalashda xalqaro baholash tadqiqotlari talablari asosida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishi va amalda foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida o'quv topshiriqlari haqida so'z yuritamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtidorini aniqlashda diagnostika metodlaridan foydalanish mexanizmi ijodiy iqtidorni aniqlash diagnostikasining pedagogik imkoniyatlarini tashkiliy-pedagogik, motivatsion-qadriyatli va amaliy-faoliyatli jarayonlar integrativ xususiyatlarini maqsadli yaxlitlash hamda xalqaro PISA va TIMSS topshiriqlari PIRLS topshiriqlari mazmuniga uyg'unlashtirildi.

O'quv topshiriqlari – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchini faol harakatga undaydigan omil o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Ko'zlangan maqsadlar tizimi ularning bajarilishini ta'minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog'lanadi. Shu sababli o'quv topshiriqlarini to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini aniqlay olish.
2. Darsning maqsadini inobatga olgan holda unga muvofiq o'quv topshiriqlari tizimini tuzish.

Rossiyalik tadqiqotchi D.Tollingerova tomonidan taklif etilgan o'quv topshiriqlari taksonomiyasidan rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Quyida o'quv topshiriqlari taksonomiyasi keltiriladi:

I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:

1. Xabardor bo'lishga oid topshiriqlar.



2. Alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar.
3. Ta'rif, meyor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar.
4. Katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va boshqalarni yodga olishga oid topshiriqlar.

II. Raqamlar va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

1. Dalillar (o'lchash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar.
2. Dalillarni keltirish va ta'riflash (hisoblash, sanab o'tish va b.)ga doir topshiriqlar.
3. Harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga oid topshiriqlar.
4. Ajratish va yig'ish (tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar.
5. Qiyoslash va farqlash (taqqoslash va bo'lish)ga oid topshiriqlar.
6. Taqsimlash (kategoriyalashtirish va tasniflash)ga doir topshiriqlar.
7. Dalillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik (sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta'sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar.
8. Abstraksiya, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar.
9. Murakkab bo'lmagan (kattalik, o'lchamlari noma'lum bo'lgan) misollarni yechish.

III. Raqamlar bilan ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni bajarishni taqozo etuvchi topshiriqlar:

1. Ko'chirish (biror joyga uzatish, shaklini o'zgartirish)ga oid topshiriqlar.
2. Bayon qilish (sharhlash, ma'nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar.
3. Induksiya (juz'iy xususiyatga tayangan umumiy xulosa chiqarish)ga oid topshiriqlar.
4. Deduksiya (umumiy holatga ko'ra xususiy xulosalar chiqarish)ga doir topshiriqlar).
5. Isbotlash (dalillashtirish) va tekshirishga oid topshiriqlar.
6. Baholashga doir topshiriqlar.

IV. Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar:

1. Umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar.
2. Hisobot, ma'lum muammoga bag'ishlangan taqdimot, ma'ruzalarni tayyorlashga oid topshiriqlar.
3. Mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihalar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar.

V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:

1. Amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar.
2. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar.



3. Savollarni qo'yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar.

4. Shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda yechimni topishga oid (sensor – sezgi, his qilishga asoslangan) topshiriqlar.

5. Shaxsiy mulohazaga asoslangan holda yechimni topishga doir (ratsional yechimga asoslangan) topshiriqlar.

Taksonomiya asosida o'qituvchilar turli murakkablikdagi o'quv topshiriqlarini shakllantirish va ular yordamida ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga matn shakli va mundarijasini baholay olishga doir topshiriqlar orqali ham o'quvchilarning savodxonlik darajalari baholanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, har bir o'qituvchi xalqaro tadqiqot talablari asosida yaratilgan topshiriqlarning o'quvchilar tomonidan bajarilganlik holatini baholash mezonlarini bilishi muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Tashkenbayev U.Nning umumiy tahriri ostida / Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash – T.: Sharq, 2019. –91 b.

2. Норқобилова, Р. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. *Общество и инновации*, 4(1/S), 36-41.

3. Abdullayeva, S. A., & Norqobilova, R. D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim o'zlashtirishlarini diagnostika qilish. *Interpretation and researches*, 1(1).

4. Норқобилова Р. Хорijiy fanlardan maktabga tayyorgarligining diagnostikasi // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 11.

5. Norqobilova R. D. Component parts and tasks of pedagogical diagnostics //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 76-83.

6. Раухона Давлатовна Норқобилова. The significance of psychological-pedagogical diagnostics in the educational process. Vol. 1 No. 1 (2023): *World of Scientific news in Science International Journal*.

7. RD Norqobilova, SA Abdullayeva. Diagnostika pedagogik muammo sifatida. - *Academic research in educational sciences*, 2023.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada PIRLS ta'rifi, darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning ikki turi, badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining to'rt guruhi haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается определение РИРЛС, двух видов чтения, наиболее часто используемых учащимися на уроках, проводится четыре группы навыков чтения при чтении литературных и научно-популярных текстов.

SUMMARY

This article discusses the definition of RIRLS, the two types of reading most often used by students in the classroom, four groups of reading skills in reading literary and popular science texts. is conducted.